

# "Navoiyazot" AJ jamoasiga bayram tabrigi

// 15 November 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-aj-jamoasiga-bayram-tabrigi>



Bugun mamlakatimiz kimyo sanoatining eng yirik quvvatlaridan biri bo'lgan "Navoiyazot" Aksiyadorlik jamiyati tashkil topganligining 60 yilligi keng nishonlanmoqda.

O'zining shonli 60 yillik tarixi davomida "Navoiyazot" AJ yildan yilga rivoj topdi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi ko'paydi, dunyoning yirik kompaniyalari bilan yangi investitsion loyihalar ishga tushirildi, jamiyatda fidoiy kimyogarlar, o'z kasbining mohir ustalari jamoasi kengaydi. Ayni paytda korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar dunyoning deyarli barcha qit'alariga yetib bormoqda! Bularning barchasi "Navoiyazot" AJni mamlakatimiz kimyo sanoatining tayanchiga aylantirdi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'kidlash joiz, so'nggi yillarda bevosita davlatimiz rahbari tashabbusi va ishtirokida "Navoiyazot"da amalga oshirilgan 2 milliard dollardan ziyod 3 ta yirik loyiha, nafaqat korxonada faoliyatida, balki kimyo sanoati tarixida kuzatilmagan voqea hisoblanadi. Tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 70 ga yaqin turi, kimyo mahsulotlarining 41 foizi aynan mazkur korxonada hissasi to'g'ri keladi. "Navoiyazot" AJ o'z mahsulotlari bilan tog'-kon sanoati, avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi, yoqilg'i-energetika kompleksi, tekstil sanoati, shuningdek, xizmat ko'rsatish, fan, madaniyat, ta'lim sohalarining deyarli barcha tarmoqlarini qamrab olgan va barcha yo'nalishlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Shu munosabat bilan korxonaning ko'p ming sonli kimyogarlari jamoasi va mehnat faxriylarini, korxonaning rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan barcha kasb fidoiylarini ushbu tarixiy sana bilan "O'zkiyosanoat" AJ hamda tarmoq korxonalarining katta jamoasi nomidan chin qalbdan tabriklayman!

Oldimizga qo'ygan ulkan marralarni zabt etishda, xalqimizning farovon turmushi, mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda hissa qo'shishda "Navoiyazot" AJning salohiyatli va ahil jamoasiga shijoat va g'ayrat, korxonaning kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilayman!

Hurmat bilan,

Timur Muxamedjanov

"O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati